O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

**“TASDIQLAYMAN”**
**Iqtisodiyot fakulteti dekani v.b.**
________ U.T.Eshmuradov
2026-yil “06” 06

# OPERATSION MENEJMENT
# FANINING O‘QUV DASTURI
(masofaviy ta’lim shakli)

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400000 | - Biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 410000 | - Biznes va boshqaruv |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60410800 | - Menejment |

**Samarqand – 2026**

Mazkur o'quv dasturi Iqtisodiyot fakulteti Kengashining 2026-yil 26.06 11-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

Mazkur o'quv dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi tomonidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil 24.06 11-sonli yig'ilish bayoni).

**Tuzuvchilar:**

M.I. Diyarova – i.f.f.d. (PhD), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi katta o'qituvchisi

A.T. Raxmonova – i.f.f.d. (PhD), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi assistenti.

**Taqrizchilar:**

A.R. Latipov – i.f.f.d. (PhD), Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Menejment kafedrasi, v.b. dotsent

A.I. Raxmanov – Sanoatqurilishbank ATB, "Kredit monitoring va nazorat departamenti" Inspeksion monitoring xizmati menejeri.

| 1. | Fan ma'lumotlari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul kodi**<br>OPEMAN1415 | **O'quv yili**<br>2026-2027 | **Semestr**<br>4 | | | **ECTS – Kreditlar**<br>5 | |
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | **Ta'lim tili**<br>O'zbek | **O'quv rejadagi tartib raqami**<br>60410800 – 1.19 | | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4 | |
| **Fanning nomi**<br>Operatsion menejment | **Jami yuklama (soat)** | **Auditoriya mashg'ulotlari jami – 60 soat, shundan:** | | | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Kurs ishi** |
| | | **Ma'ruza** | **Amaliy** | **Lab-ya** | | |
| | 150 | 30 | 30 | - | 90 | - |

| 2. | Fanning mazmuni |
|---|---|

Fanning maqsadi – talabalarni ishlab chiqarishni boshqarishning metodologik asoslari, jarayonlarni boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil etish masalalarini rejalashtirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi xalqaro darajadagi biznes operatsiyalar samaradorligini ta'minlash uchun qo'llaniladigan bazaviy konsepsiya va metodlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari – talabalarga turli tashkilotlar va uning menejerlarining operatsion strategiyalari shakllanish logikasini tushunish; jarayonli yondashuvdan an'anaviy funksional yondashuvni farqlay olish; operatsion darajadagi biznes jarayonlar samaradorligi uchun funksional bo'linmalarda qabul qilingan qarorlar natijalarini tushunish va baholash; operatsiyalarning ishlab chiqarish chegirmasi hamda mahsulot va xizmatlarning sifatiga ta'sirini baholash; operatsiyalarga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash; operatsion qiymat tahlilini va kompaniya biznes jarayonlarini yaxshilashdan iborat.

| 3. | Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar |
|---|---|
| 1. | INTMAN1315 Menejmentga kirish |
| 2 | IQN1211210 Iqtisodiyot nazariyasi 1, 2 |
| 3 | MR12410 Marketing |
| 4 | QUAMAN1415 Sifat menejmenti |

| 4. | Ta'lim natijalari (TN) |
|---|---|
| | ***Kasbiy kompetensiyalar:*** |
| TN1 | Mansab jarayonining mexanizmlarini bilishi; |
| TN2 | Xodimlarni boshqarish tizimidagi martaba strategiyasining o'ziga xos xususiyatlarini bilishi; |

| | |
|---|---|
| TN3 | Operatsiyalarni boshqarishning zamonaviy nazariyalari mazmuni haqida tasavvurga ega bo'lishi; |
| TN4 | Qiymatlar zanjirini yaratishni bilishi lozim. |
| | ***Ko'nikmalar:*** |
| TN5 | Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida biznes operatsiyalarini samarali ta'minlash; |
| TN6 | Jarayonlarni samarali tashkil etish bosqichlarini, jarayonlarni rejalashtirishni; |
| TN7 | Operatsiyalarni boshqarishning xalqaro tajribasini o'rganish, zaxiralarni boshqarish operatsiyalar menejmenti va ularning tarmoq modellari ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. |

| 5. | Fan mazmuni va mashg'ulotlar shakli: | Soat |
|---|---|---|
| | **Ma'ruza (M)** | **30** |
| M1 | **"Operatsion menejment" fanining mohiyati.** *Fanga kirish. Operatsion menejmentning boshqa sohalar bilan aloqasi. Dunyo miqyosidagi kompaniyalarda operatsion menejment va operatsion-qiymat tahlil. Raqobat rivojlanishning zamonaviy bosqichda kompaniya samaradorligi. Operatsion-qiymat tizimi. [1,2]* | 2 |
| M2 | **"Operatsion menejment" fanining rivojlanish tendensiyasi.** *Operatsion menejment tarixi va unda ishlab chiqarish hamda xizmatlar. Ishlab chiqarish operatsion tizimlarini tashkil etish modellari. Ishlab chiqarish quvvatlarinig ta'riflari. Jarayonni tashkil etish asoslari va tamoyillari. Operatsion jarayonlarni boshqarish tizimlari. [1,2]* | 2 |
| M3 | **Jarayonlarni makon va vaqtda tashkil etish. Operatsion tizimni "Cheklov nazariyasi" asosida boshqarish.** *Jarayonlarni tashkil etishning asosiy tamoyillari. Cheklov nazariyasining mohiyati va mazmuni. Cheklov nazariyasiga muvofiq operatsion tizimni boshqarish. Ishlab chiqarish jarayonlarini fazoviy tashkil etish. Xizmatlar ta'rifi va mohiyati. Xizmatlar sifat tushunchasi va xizmatlar xususiyatlari. [1,2]* | 2 |
| M4 | **Kompaniyaning o peratsion strategiyasini ishlab chiqish.** *Operatsion strategiyaning dolzarbligi. Servis strategiyasi. Servis kompaniyalar va jarayonlar. Ishlab chiqarish jarayonlari. Servis jarayonlarining ishlab chiqarish jarayonlaridan farqi. Kompaniyaning operatsion strategiyasi va transformatsiyasi. Operatsion omillarning asosiy toifalari va mazmuni. Restrukturizatsiyalash. [1,2,3]* | 2 |
| M5 | **Samaradorlikning tayanch ko'rsatkichlari (KPI) bazasida operatsion strategiya realizatsiyasi.** *Balanced Scorecard konsepsiyasi* | 2 |



- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.


| 11. | Foydalanilgan adabiyotlar |
|---|---|
| | **Asosiy adabiyotlar** |
| 1. | Umarxodjaeva M.G., Ermatov T.Sh., B.A. Sulaymonov. Operatsion menejment. "Iqtisod-Moliya" nashriyoti. Darslik. T.: 2019. -368 bet. |
| 2. | Sattarova N.T. Operatsion menejment [Matn]: O'quv qo'llanma / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024 - 290 bet. |
| 3. | Петрова И.В. Операционный менеджмент: учебное пособие / И.В. Петрова, И.А. Герасименко, А.С. Довгань. – Донецк: ГОУ ВПО ДонГУУ, 2016. – 177 с. |
| | **Qo'shimcha adabiyotlar** |
| 4. | Пивоваров С. Э., Максимцев И. А., Рогова И. Н., Хутиева Е. С. Операционный менеджмент: Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения. — СПб.: Питер, 2011. — 544 с. |
| 5. | Fundamentals of Management, Eighth Edition. by Ricky W. Griffin. Boston, MA 02210 USA. 2016. 547 p. |
| 6. | Ильдеминов С.В. Операционный менеджмент. -Учебник.М.ИНФРА-М 2019. 296 bet. |
| | **Axborot manbaalari** |
| 7. | www.lex.uz |
| 8. | https://arm.ssuv.uz/frontend/web/books/661d147abb241.pdf |
| 9. | https://msu.dvaoblaka.ru/media/2023/05/645075269cde7_%D0%9E%D0%BF%D0%B5%D1%80%D0%B0%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D1%8B%D0%B9%20%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D0%B5%D0%B4%D0%B6%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D1%82.pdf |
| 10. | https://ocw.mit.edu/courses/15-760a-operations-management-spring-2002/pages/syllabus/ |
| 11. | https://pages.stern.nyu.edu/~wx2/Syllabus_OM_2024Fall.pdf |

| |
|---|
| **a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**<br>➢ fanning mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;<br>➢ fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;<br>➢ fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;<br>➢ fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;<br>➢ berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;<br>➢ konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;<br>➢ mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;<br>➢ barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan bo'lsa;<br>➢ nazariy bilimlarni turli vaziyatda qo'llay olish;<br>➢ tizimli yondashish, uzviylikka amal qilish. |
| **b) 4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**<br>➢ fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;<br>➢ fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;<br>➢ fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirisida bajarsa;<br>➢ fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;<br>➢ fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;<br>➢ fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;<br>➢ barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga harakat qilgan bo'lsa. |
| **d) 3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**<br>➢ fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;<br>➢ fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilsa;<br>➢ fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;<br>➢ bayon qilish ravon bo'lmasa;<br>➢ fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;<br>➢ fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa. |
| **e) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:**<br>➢ fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;<br>➢ fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;<br>➢ fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajarmagan bo'lsa; |



| | | |
|---|---|---|
| | *asosida kompaniyalarni operatsion boshqarish. Strategiyani muvaffaqiyatli realizatsiya qilish. Balanced Scorecard kontseptsiyasining asosiy elementlari. Balanced scorecardning SAP SEM komponentiga integratsiyasi. Yangi kontseptsiyani realizatsiya qilish jarayoni. Korporatsiyaning monitoring samaradorligi. [1,2]* | |
| **M6** | **Operatsion qiymat tahlilidan foydalanib mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va loyihalashtirish.** *Mahsulot va xizmatlarni loyihalashtirish va ishlab chiqish jarayonlarining dolzarbligi va xususiyatlari. Mijozlarning yangi va o'zgaruvchan talablari. Xizmatlar ishlab chiqishning xususiyatlari. Loyihalashtirish jarayoni. Loyihani ishlab chiqish. ABS – injiniring. ABS-tahlil mahsulot funktsiyasini aniqlash. [1,2,3]* | 2 |
| **M7** | **Sifat boshqaruvi va benchmarking.** *ISO 9000 xalqaro standartlari va faoliyat takomillashuvi modeli. ISO 9004:2000 standarti asosida kompaniyani baholash modeli. Faoliyat takomillashuvi modeli. Etalonning asosiy xususiyatlari. Etalonning tayanch ko'rsatkichlari. Iste'mol talablarini boshqarish. Sifatning joriy ko'rsatkichlarini o'lchash. "Shest sigm" tizimi bo'yicha biznes jarayonlarni takomillashtirish. [2,3]* | 2 |
| **M8** | **Prognozlashtirish va rejalashtirish.** *Prognozlashtirish. Moliyalashtirish doirasida prognozlar. Talabni prognozlashtirish. Prognozlashtirishning uslublari. Rejalashtirishning mohiyati va mazmuni. Ishlab chiqarish rejasini ishlab chiqish uslubiyotiIshlab chiqarish quvvatlarini rejalashtirish va joylashtirish. [1,2,3]* | 2 |
| **M9** | **Kalendar rejalashtirish.** *Kalendar rejalashtirishning mohiyati va mazmuni. Kalendar rejalashtirish loyiha jadvalini ishlab chiqish. Ishlab chiqarishni rejalashtirishning maqsad va vazifalari. Kalendar rejasini tuzish usullari. Mehnat jarayonida qabul qilinadigan qarorlar. Mehnat unumdorligini oshirish yo'llari. [1,2,3]* | 2 |
| **M10** | **Qiymat yaratish zanjirini boshqarish (SCM).** *Qo'shimcha qiymat zanjirini loyihalashtirish. Qo'shimcha qiymat zanjirini boshqarish. Raqobat ustunligini yaratish uchun qiymat zanjiridan foydalanish. Tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirini takomillashtirish. [1,2,3]* | 2 |
| **M11** | **Operatsion menejmentda jarayonlarni boshqarish.** *Jarayonlarni boshqarish mohiyati. Jarayonlarni "Shest sigm" tizimi bo'yicha baholash. Makrodarajadagi namunaviy jarayonlar. Amaliyotda jarayonlarni boshqarish. Muammolarning kross-funktsional qarorlari. Biznes-jarayonlar reinjiniringi bosqichlarini tahlil qilishJarayonlarni* | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| | *yaxshilashning operatsion strategiyasini tanlash. Jarayonning harakatini parametrlar bo'yicha baholash. [1,2,3]* | |
| M12 | **Jarayonlarni tasvirlash.** *Kompaniya faoliyati korporativ modeli haqidagi holatni ishlab chiqish va modellashtirish. Modelni qurish ishtirokchilarining funktsiyalari. Modellashtirishning korporativ standartlari. Modellashtirish metodologiyasining asosiy elementlari. Modeldan foydalanish tartibi. Modellashtirish tamoyillari. Axborotlarni yig'ish va ekspertlar so'rovi muolajasi. Jarayonlar xaritasini tuzish. [1,2]* | 2 |
| M13 | **Jarayon va operatsiyalarni takomillashtirish tamoyillari.** *Jarayonlarni uzluksiz yaxshilash. Biznes-jarayonlarni rejalashtirish va boshqarish jarayoni. Jarayonlarni yaxshilash tamoyillari. Kayzen uslubi bilan tahlil. Qo'shimcha qiymat tahlili. Muammolar ro'yxati va ularni hal qilish yo'llari. Ishlab chiqarish blokidagi biznes-jarayonlar. [1,2,3]* | 2 |
| M14 | **Operatsion tizimlarning yangilanishi.** *Biznes jarayonlar yangilanishining (innovatsion xususiyatlar) mohiyati. Yangilanish tamoyillari. Kompaniyadagi innovatsion jarayonlar. Jarayonni yangilash bosqichlari. Jarayonni yangilash usullari va vositalari. [1,2]* | 2 |
| M15 | **JIT (o'z vaqtida) tizimini yaratish.** *JIT tizimining mohiyati va mazmuni. JIT tizimini shakllantirish bosqichlari. Logistika sohasida JIT ning afzalliklari. Yaponiyada yaratilgan mashhur JIT operatsion tizimi. JIT tizimiga talablar. [1,2]* | 2 |
| | **Amaliy mashg'ulot (A)** | **30** |
| **A1** | "Operatsion menejment" fanining mohiyati va predmeti. | 2 |
| **A2** | "Operatsion menejment" fanining rivojlanish tarixi. | 2 |
| **A3** | Jarayonlarni makon va vaqtda tashkil etish. Operatsion tizimni "Cheklov nazariyasi" asosida boshqarish. | 2 |
| **A4** | Kompaniyaning o peratsion strategiyasini ishlab chiqish. | 2 |
| **A5** | Samaradorlikning tayanch ko'rsatkichlari (KPI) bazasida operatsion strategiya realizatsiyasi. | 2 |
| **A6** | Operatsion qiymat tahlilidan foydalanib mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va loyihalashtirish. | 2 |
| **A7** | Sifat boshqaruvi va benchmarking. | 2 |
| **A8** | Ishlab chiqarish jarayonini prognozlashtirish va rejalashtirish. | 2 |
| **A9** | Kalendar rejalashtirish. | 2 |
| **A10** | Qiymat yaratish zanjirini boshqarish (SCM). | 2 |
| **A11** | Operatsion menejmentda jarayonlarni boshqarish. | 2 |
| **A12** | Jarayonlarni tasvirlash. | 2 |
| **A13** | Jarayon va operatsiyalarni takomillashtirish tamoyillari. | 2 |
| **A14** | Operatsion tizimlarning yangilanishi. | 2 |
| **A15** | Just-in-time (o'z vaqtida) tizimini yaratish. | 2 |



| **7.** | **Mustaqil ta'lim topshiriqlari*** | **90** |
|---|---|---|
| 1 | Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash. | 6 |
| 2 | Sanoat korxonalarida kichik biznes operatsiyalari aloqalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. | 6 |
| 3 | Ishlab chiqarish faoliyati operatsion menejmentning obyekti sifatida. | 6 |
| 4 | Yangi mahsulotni rejalashtirishni boshqarishni tashkil etish. | 6 |
| 5 | JIT – o'z vaqtida tizimi. JIT logikasi. | 6 |
| 6 | Ishlab chiqarishdan samarali foydalanishini rejalashtirish | 6 |
| 7 | Sifatni boshqarishning Yapon modeli. | 6 |
| 8 | Operatsion qiymat tahlilidan foydalanib mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va loyihalashtirish. | 6 |
| 9 | Kompaniyaning operatsion strategiyasini ishlab chiqish. | 6 |
| 10 | Ishlab chiqarish jarayonini prognozlashtirish | 6 |
| 11 | Qiymat yaratish zanjirini boshqarish (SCM). | 6 |
| 12 | Jarayonlarni tasvirlash. Jarayon va operatsiyalarni takomillashtirish tamoyillari. | 6 |
| 13 | Operatsiyalarni boshqarishda tarmoqli grafik va to'rli rejalashtirish. | 6 |
| 14 | Tarmoqli rejalashtirish va boshqarish tarmoqlarining vazifasi | 6 |
| 15 | "Lean production" tadbiq etish bosqichlari va xorijiy tajribasi. | 6 |

**8. Ta'lim texnologiyalar va metodlari**

- ma'ruzalar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
- interfaol keys-stadilar;
- blits-so'rov;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**9. Talabalar tomonidan kreditlarni olish uchun talablar**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

**10. Talabalar bilimini baholash mezoni**